
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
# TIL
# ADABIYOT
# TA'LIM



## Philological research:
## LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

## Филологические исследования:
## ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

**2024/ № 3**

Termiz – 2024

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY’ATI:**

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

**БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ**
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи ..... 7

**НЮБАР ХАКИМОВА**
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления ..... 15

**ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ**
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) ..... 18

**TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH**
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi ..... 23

**САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ**
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел ..... 25

**TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH**
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari ..... 29

**АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ**
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари ..... 32

**SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA**
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar ..... 37

**RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI**
Jargonlar presuppozitsiyasi ..... 41

**TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA**
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida ..... 45

**XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA**
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) ..... 49

# М У Н Д А Р И Ж А

**JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA**
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi ..... 52

**XAYDAROVA XURSHIDA**
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) ..... 57

**АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА**
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках ..... 61

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ**
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари ..... 65

**JABBOROV ESHNAZAR**
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari ..... 69

**ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ**
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси ..... 71

**Резюме.** Маълумки, Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек тилининг ўғуз шевалари генетик жиҳатдан туркий тилларнинг ўғуз туркумига бориб тақалади. Шунга кўра, диалектал зонадаги ўзбек (ўғуз) ва туркман тилларида ўзига хос умумий хусусиятлар бор. Мақолада Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тилларининг ўзаро алоқаси ҳақида сўз боради.

**Resume.** It is known that the Oghuz dialects of the Uzbek language in the Khorezm dialectal zone are genetically related to the Oghuz group of Turkic languages. Accordingly, the Uzbek (Oghuz) and Turkmen languages in the dialectal zone have their own common features. The article talks about the interaction of the Uzbek and Turkmen languages in the Khorezm dialectal zone.

**Резюме.** Известно, что огузские диалекты узбекского языка Хорезмской диалектной зоны генетически родственны огузской группе тюркских языков. Соответственно, узбекский (огузский) и туркменский языки в диалектной зоне имеют свои общие черты. В статье говорится о взаимодействии узбекского и туркменского языков в Хорезмской диалектной зоне.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# O‘ZBEK TILIDA LISONIY SHAXSNI SHAKLLANTIRUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

**Saatova Surayyo Ismailovna,**
*Mirzo Ulug‘bek nomidagi*
*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*

Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida tilni o‘rganishda yangidan yangi tadqiq usullarining yuzaga kelishi natijasida yangicha yondashuvlarga ehtiyoj sezilmoqda. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishi, ya'ni tilda insonning, insonda tilning tahlil qilinishi yangi sohalarning ham yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, tilni undan foydalanuvchi til egasining shaxsiy sifatlari: millati, diniy mansubligi, yoshi, jinsi, kasb-kori, ruhiyati, ijtimoiy mavqeyi, dunyoqarashi, bilim darajasi kabi omillar bilan bog‘liq holda tadqiq etishga e'tibor qaratildi. Tilning amaliy-vazifaviy imkoniyatlarini kommunikativ jarayonda o‘rganishga jiddiy kirishildi.

Tilshunoslarning bu kabi qarashlari nutqni yaratish va ishlatish jarayonlarida insonning yetakchi rolini tan olish bilan bog‘liq[1]. Yangi lingvistik paradigmada nutq yaratuvchi insonni o‘rganish jarayonida tilshunoslar, madaniyatshunoslar, sotsiologlar, faylasuflar manfaatlari to‘qnashishini taqozo qiladi. Y.K.Voloshin to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Ko‘p yillar davomida tilshunoslar “jim odam” ni o‘rganishdi. Til va odamlarni har tomonlama o‘rganish tadqiqotchilarni “nutq so‘zlovchi odam” ning barcha jihatlariga jiddiy e'tibor berishga undadi.[2] Lingvopersonologiyaning asosiy o‘rganish predmeti lisoniy shaxs bolib, tilshunoslikda bu termin 90-yillardan boshlab keng qo‘llana boshlagan. Bu tushuncha birinchi marta 1927-yili nemis tilshunosi Y.Vaysgerberning “Ona tili va ruhning shakllanishi” nomli risolasida paydo bo‘lganligi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi[3].

Lisoniy shaxs ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uni yuzaga chiqaruvchi omillar ham xilma-xildir. Lisoniy shaxsni shakllantirishda, ayniqsa, lingvistik omil bilan bir qatorda ekstaralingvistik omillar hisoblangan: kishining lavozimi, kasbi, hunari, mavqeyi, yoshi, jinsi, dini, millati va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson kommunikatsiyani yuzaga keltiruvchi bosh

[1] Волошин Ю.К. Общий американский сленг: состав, деривация и функция (лингвокультурологический аспект 222): Монография. – Краснодар: Кубан. гос. ун-т, 2000. – 280 с.

[2] Волошин Ю.К. Общий американский сленг: состав, деривация и функция (лингвокультурологический аспект): Монография. – Краснодар: Кубан. гос. ун-т, 2000. – 282 с.

[3] Usmanova Sh. Lingvokultrologiya. – Toshkent, 2019. – B. 179.

tashkilotchidir. Nutqiy muloqot esa insondan tashqarida amalga oshmaydi. Nutqiy muloqotga shaxs bilan bog‘liq turli omillar ta’sir ko‘rsatadi.

V.V.Bogdanov nutqiy muloqot jarayoniga ishtirok etuvchi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs xususiyatlarini quyidagicha farqlagan: 1) lisoniy qobiliyat; 2) ma’lum millatga mansublik; 3) ijtimoiy-madaniy mavqe (ma’lum ijtimoiy guruhga oidligi, kasbi, lavozimi, ma’lumoti, yashash joyi, oilaviy ahvoli); 4) biologik-fiziologik ko‘rsatkichlari (jinsi, yoshi, sog‘ligi, jismoniy nuqsonlarining mavjudligi yoki yo‘qligi); 5) ruhiy-psixologik turi (temperamenti, patologik ko‘rsatkichlari); 6) vaziyatga nisbatan o‘zgaruvchan ruhiy holati (kayfiyati, muvaqqat bilimi, maqsadi va qiziqishi); 7) doimiy didi, qiziqish va odatlari; 8) tashqi ko‘rinishi (kiyinishi, o‘zini tutishi, xulq-atvori)[1]. Anglashilganidek, V.V.Bogdanov farqlagan nutqiy muloqot jarayoniga ishtirok etuvchi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs xususiyatlarida ham ijtimoiy omillarning ko‘pligi e’tiborni tortadi.

Til va inson, til va jamiyat, til va borliq o‘rtasidagi aloqadorlik juda qadimdan anglangan haqiqat bo‘lib, “Tilning jamiyatga, jamiyatning esa tilga ta’siri bugungi antropotsentrik tilshunoslikdagi o‘zak qoidalardandir, til bilan birgalikda jamiyat, jamiyat bilan birgalikda til rivojlanib boradi”[2].

Lisoniy shaxs haqida so‘z yuritar ekan, A.A.Leontev har bir millat dunyoqarashining asosga egaligi va har bir millatning dunyoqarashi o‘zining subyektiv qadriyatlari, ijtimoiy stereotiplari, bilim sxemalari tizimidir ekanligini ta’kidlaydi. Shuning uchun inson ongi har doim etnik jihatdan shartlangan, bir xalq tomonidan dunyoni ko‘rishni oddiy “qayta yozish” orqali boshqa xalq madaniyati tiliga tarjima qilish mumkin emas deb hisoblaydi[3].

Mutaxassislar fikricha, til har doim xalqning eng yorqin xususiyatlarini belgilovchi hodisa sifatida e’tirof etilgan. XIX asr tilshunosligida “Til va madaniyat”, “til va inson” asosiy muammolardan biri bo‘lib, V.fon Gumboldt, E.Benveniste, G.Steyntal, A.A.Potebnya va boshqa olimlarning asarlarda ko‘rib chiqilgan.

Maqolada tavsiflash, qiyoslash, tasniflash, kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Keyingi asrlarda, ayniqsa, tilni undan foydalanuvchi til egasining shaxsiy sifatlari: millati, diniy mansubligi, yoshi, jinsi, kasb-kori, ruhiyati, ijtimoiy mavqeyi, dunyoqarashi, bilim darajasi kabi omillar bilan bog‘liq holda tadqiq etishga e’tibor qaratildi.

O‘zbek tilida yozilgan matnlarda yozuvchilar jamiyatdagi turli xil yoshdagi insonlar nutqini yaratishgan, jumladan, yosh bola nutqi, yoshlar nutqi, kattalar nutqi. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari haqida tadqiqot olib borgan

D.Niyazova til egasi yosh xususiyatining nutqda reallashuvi asosida lisoniy shaxs tiplarinini ikkiga bo‘ladi: bolalar nutqiga xos lisoniy shaxs tipi, kattalar nutqiga xos lisoniy shaxs tipi[4].

Bolalar nutqida o‘ziga xos intonatsiya, ovozning jarangdorligi, fonetik jihatdan o‘ziga xoslik kuzatiladi. Til sistemasining to‘liq o‘zlashtirilmaganligi, nutqiy kompetensiyalarning shakllanmaganligini kuzatishimiz mumkin.

Lisoniy shaxs – bola nutqida kuzatilgan tovush talaffuzidagi nome’yoriy holat natijasida kommunikativ-pragmatik to‘siq yuzaga kelib, tinglovchi tomonidan nutqiy aktda aks etgan axborotning idrok etilishi qiyinlashadi. Albatta, nutqda so‘zlovchining yosh jihati bilan bog‘liq fiziologik omillar ta’sirida til birligi qancha ko‘p fonetik o‘zgarishga uchrasa, tinglovchining uni idrok etishi shu darajada murakkab kechadi. O‘zbek tilshunosligida o‘zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilgan M.Qurbonova kattalar nutqida pragmatik to‘siq ko‘pincha tilning orfoepik me’yorlariga amal qilmaslik, leksik birliklarni noo‘rin qo‘llash kabilar bilan bog‘liq holda yuzaga kelib, nutq mazmunini xiralashtirsa; bolalarda leksik birliklardan ma’nosini tushunmay nutqda foydalanish, talaffuz me’yorlariga rioya qilmaslik kabilar pragmatik to‘siqning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi[5]. O‘zbek tilshunosligida bu masalaga dastlab M.Hakimov munosabat bildirgan bo‘lib, tilshunos olim pragmatik to‘siqni so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga muvofiq bo‘lmagan nopragmatik axborot sifatida baholaydi[6]. M.Hakimov nutqda pragmatik to‘siq muayyan omillar ta’sirida yuzaga kelishini ta’kidlaydi hamda pragmatik to‘siqning me’yorsiz talaffuz, nome’yoriy so‘z qo‘llash, grammatik shakl va sintaktik qurilmalarning me’yorsiz bog‘lanishi, funksional uslubning me’yorsiz qo‘llanishi natijasida yuzaga kelishini qayd etadi[7].

Quyidagi matnda yosh bola lisoniy shaxsining voqelanganligini sezish mumkin:

[1] Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. – С. 28-29.

[2] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент, 2017. – Б. 13.

[3] Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция гендерной языковой личности: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Барнаул, 2004. – 22 с.

[4] Ниязова Д.Бадиий матнда лисоний шахс типлари: Филол.фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Қарши, 2020. – Б. 51.

[5] Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. докт. … дисс. – Тошкент, 2018. – 240 б.

[6] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 155.

[7] Ҳакимов М. Кўрсатилган асар. – Б. 121- 134.

*– Dada, bu yimadi?*
*– Tugma o‘g‘lim, tugma.*
*– Yaga yulduzi bor?*
*– Harbiylarning tugmasi shunaqa bo‘ladi.*
*– Harbiy yima bo‘ladi dada?*
(S.Ahmad, “Yodgor”; 28-bet)

Keltirilgan matnda lisoniy shaxs nutqida fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar qo‘llangan. Kichik yoshdagi bola tomonidan hosil qilingan ushbu nutq parchasida “n” tovushining talaffuzi orfoepik me’yorga muvofiq emas. Bunday holat muloqot jarayonida kommunikativ-pragmatik to‘siqni yuzaga keltirib, tinglovchi tomonidan nutqiy aktda aks etgan propozitsiyaning idrok etilishi qiyinlashtiradi. Yozuvchi bola lisoniy shaxsini shakllantirishda yozuvchi bolalar nutqiga xos bo‘lgan “n” tovushini ayta olmaslik hodisasidan unumli foydalangan. *yimadi, yima* tarzidagi bu qo‘llanish nutq egasining yoshi haqida tasavvur uyg‘otadi. Asosan, kichik yoshdagi bolalar nutqida kuzatiladigan bunday fonetik o‘zgarishlar kattalarda kulgi, bola nutqidan zavqlanish kabi his-tuyg‘ularni uyg‘otishi bilan lingvopersonologik ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida yaratilgan asarlarda qahramonlar yosh xususiyatlariga ko‘ra tasnif qilinganda, yozuvchilar jamiyatda bolalar, yoshlar va qariyalar lisoniy shaxsini tasvirlashda o‘ziga xos verbal va noverbal nutq tuzish usullaridan foydalanishadi. Masalan, yoshlar nutqida jargon va argolar, vulgarizmlar, varvarizmlar, ekzotizm, okkozionalizmlar ko‘proq uchraydi. Ularning nutqi sintaktik qoliplarning qisqa ekanligi bilan ham ajralib turadir:

*– E haromi tashlandiqlar, bu ko‘chadan yurmalaring, – dedi ulardan biri.*

*– O‘zlari boshlashdi, dedi Qamariddin undan najot kutib…*

*– Haromi, beadab, turqingni ko‘rsatma bu yerda, – dedi so‘kinib.*

(T. Malik, 2019; 98)

Keltirilgan parchadagi vulgarizmlar personaj nutqida tinglovchiga nisbatan kamsitish ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, uni kamsitish orqali o‘zining mavqeyini ham ko‘rsatib qo‘yishga uringan lisoniy shaxs shakllantirilgan.

Yozuvchilar jamiyatdagi yoshi ulug‘ kishilar, qariyalar lisoniy shaxsini shakllantirishda tajriba, malaka, hayotiy kuzatishlariga asoslanadi. Badiiy asarda yozuvchi qahramon nutqini shakllantirishda faqat leksik, sintaktik birliklarni qo‘llabgina qolmay, dialoglarda qahramonning holatiga izohlar ham beradi. Qo‘llanilgan leksik birliklar, sintaktik qurilmalar lisoniy shaxs haqidagi tasavvurimizni to‘liq bo‘lishiga ko‘maklashadi:

–Axir, jon bolam, qancha gina-kudurating bo‘lsa, bafurja gapirarsan. Bugun unaqa qilma. Uyga borsin. Undan keyin sen ham ko‘chingni olib kelasan. Mana ering… Er degan izvoshning oldingi g‘ildiragi bo‘lsa, xotin keyingi g‘ildiragi (S. Ahmad, 1976; 687-b)

O‘zbek millatiga mansub bo‘lgan qariyalarga og‘ir-bosiqlik, vazminlik xos bo‘lib, bu xususiyat ularning lisoniy shaxs sifatida gavdalanishida ham kuzatiladi. Uzoq yillik tajriba, zaruriy gaplarni topib o‘rnida ishlatish, vaziyatga munosib baho berish, voqea hodisaga to‘g‘ri izoh bera olish kabi holatlarni ko‘rish mumkin. Quyidagi misolda yuqorida sanalgan fazilatlarga ega lisoniy shaxs nutqi shakllantirilgan:

— Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo‘ladirg‘an bir durri bebahodir, — dedi Ziyo aka. — Qadrdoningiz Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek bir necha kunlardan buyon pinhoniy bir dard bilan og‘rir edi Ko‘rinishda uning quli, ammo haqiqatda Otabekning ma’naviy padari bo‘lg‘an Hasanali ota uning maxfiy dardining asli omilini izlaydir, bekning o‘zi bo‘lsa o‘z holi to‘g‘risida hech narsa sezdirmay dardin yashiradir. Shundog‘ qilib xo‘jasiga ixloslik Hasanalining tajribalik kuzatishidan bekning maxfiy dardi uzoqqa qocholmay natijada sir ochiladir... Shari’at ishiga sharm yo‘q, deydirlar, o‘rtoq, agarchi siz bilan menga bir muncha og‘irroq bo‘lsa ham yana so‘zlab o‘tishga hojat bor: kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradir-da bir kimsaning iffat pardasi ostida o‘lturgan qizining yuzidagi niqobini ko‘tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifaga ro‘baro‘ qiladir. Shu daqiqadan boshlab bekda u afifaga qarshi bir ishq, ham chin bir ishq tug‘uladir. (Qodiriy, 2004;42)

Ma’lumki, har bir inson dunyoni o‘zining ongi-shuuri bilan sezadi. Unga munosabatini bildirar ekan, imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan tildan o‘z imkoniyati, qobiliyati darajasida foydalanadi. Erkak va ayol jinsiga mansub insonning dunyoni anglashi, uni tilda aks ettirishi o‘ziga xos bo‘lib, tilshunoslikda gender degan tushunchaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Tilshunoslikda lisoniy shaxs haqida olib borilgan tadqiqotlarda bu masala ham e’tibordan chetda qolmagan.

A.G.Fomin tomonidan gender belgisiga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy shaxslarning nutqi o‘rganilgan. Tadqiqotchi A.G.Fomin tilshunoslikda gender degan tushuncha asosan ijtimoiy hayotda ayol shaxsiga qaratilishini hamda ular nutqidagi o‘ziga xoslik nazarda tutilishini ta’kidlaydi. Gender diskurs sifatida muloqot jarayonida ayol va erkakka xos bo‘lgan xususiyatlarning tilda va nutqda aks etishi deb ko‘rsatadi[1]. Fomin jinsga ko‘ra ajratilgan rolning muloqot jarayonidagi o‘ziga xos uslubini belgilab beradi. Jamiyatda erkak va ayol ma’lum ijtimoiy rol o‘ynaydi. Bu o‘z-o‘zidan o‘ziga xos muloqot xarakterini yuzaga kelishida sa-

[1] Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция гендерной языковой личности: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Барнаул, 2004. – С.14.

bab bo‘ladi. Qoliplashgan shaklga kelgan bunday muloqot nutq jarayonida verbal yoki noverbal vositalar yordamida namoyon bo‘ladi[1]. Lisoniy shaxsni tilshunoslikda gender belgilari asosida tadqiq qilish ayol va erkak yozuvchilar asarlari tilidagi o‘ziga xosliklarni baholashda ham muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatda erkak va ayollarning nutqlari ko‘pgina jihatlari bilan farqlanadi. Bu farqlanishlarni o‘zbek tilida yaratilgan asarlarda ham yaqqol kuzatish mukin. Xususan, o‘zbek tilida muloqot jarayonida er va xotinning bir-biriga murojaat etishlari o‘ziga xos bo‘lib, bunday vaziyatlarda xotin eriga dadasi, xo‘jayin, otasi yoki farzandining ismi bilan murojaat qilinadi.

O‘zbek tilida murojaat birliklarida yoshi katta ayolning farzandi tengi bolaga bolajonim, qo‘zichog‘im deb murojaat qilishi ko‘p kuzatiladi. Bu o‘zbeklarning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, o‘zgalarnikiga o‘xshamaydigan qadriyatlari, tarbiyaning natijasidir.

*– Voy, dadasi, bularni qarang shirinligini, hali to‘ylari ham bo‘lmagan ekan, biz bo‘lsak sizlarni kelin-kuyov debo‘ylabmiz, voy, qanday yaxshi!... – ayol negadir o‘z-o‘zidan jo‘shib ketdi, turib Nodir va Nilufarning manglayidan o‘pdi. – Ilohim, baxtli bo‘linglar!.. Qarang, dadasi, biram bir-birlariga mos!...* (U. Hamdam,“Sabo va Samandar”; 21-bet)

Ushbu parchadan esa o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan xususiyatlardan zavqlanish, havas, onalarcha soddalik kabi xususiyatlarga ega lisoniy shaxsni shakllantirishda *Voy, dadasi, shirinligini, voy, qanday yaxshi!...* kabi emotsional holatni ifodalovchi birliklardan foydalangan. Ayol lisoniy shaxshini erkak lisoniy shaxsidan ajratib turadigan muhim jihatlardan biri ham ularning nutqida emotsional leksikaning faolligidadir.

Lisoniy shaxs deganda insonning yaratilishi va idrokini belgilaydigan qobiliyatlari va xususiyatlari to‘plami tushuniladi. Ayol va erkak jinsiga mansub shaxslarning lisoniy shaxs sifatida shakllanishida ular nutqiga xos bo‘lgan strukturaviy va lingvistik murakkablik darajasining xilma-xilligi, voqelikni aks ettirishning chuqurligi va aniqligi, muayyan maqsadli yo‘nalishning belgilab berilganligi asosiy omil sifatida xizmat qiladi[2].

Erkaklar nutqida erkaklarga xos qat’iylik, kuchlilik xos bo‘lib, lisoniy shaxsni ifodalashda shu belgilar ham namoyon bo‘ladi. Kuchli, irodali shaxslar ko‘pincha suhbatdoshning maqomidan qat’i nazar, adresat harakatini belgilaydigan qoliplashgan iboralardan foydalanishga murojaat qilishadi. Erkak lisoniy shaxsiga xos bo‘lgan xususiyatlar erkak kishiga xos bo‘lgan qat’iylik, kuchlililk, o‘z nuqtayi nazariga ega bo‘lishlikda ko‘rinadi.

O‘zbek tilidagi matnlar qahramonlarining nutqini tahlil qilar ekanmiz, yozuvchilar jamiyatdagi o‘zbek millatiga mansub turli yoshga mansub lisoniy shaxslarni mohirlik bilan yaratganining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek tilida yaratilgan asarlarda bolalar nutqini tasnif qilishda til sistemasining to‘liq o‘zlashtirilmagani, o‘ziga xos intonatsiyalar, okkozional so‘zlarning ko‘p qo‘llanish holatlarini kuzatish mumkin. Qariyalar nutqida esa turli fiziologik va psixologik o‘zgarishlar natijasida diksiyaning buzilishi; ruscha-internatsional so‘zlardan qochish va arabiy so‘zlarni ko‘proq qo‘llashga moyillik; hayoti davomida o‘rganganlari, boshidan o‘tkazganlari natijasida yuzaga kelgan tajribalarini o‘rtoqlashish; maslahatli leksikaga moyillik kabi holatlar kuzatiladi.

Gender bo‘yicha kuzatilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, erkaklar nutqida konkret faktni gapiradilar, emotsiyalarini sir tutadilar. Sodda gaplardan ko‘ra uzun, murakkab qurilmali qo‘shma gaplar ko‘proq kuzatilar ekan. Erkaklar nutqida asosan undoshlarning talaffuziga e’tibor qaratiladi. Pauzalar ko‘p bo‘ladi. Nutq tempi sekinroq bo‘ladi va mantiqiy urg‘u ko‘proq kuzatiladi. Ayollar nutqida unli va undosh tovushlar erkaklarga qaraganda alohida talaffuz qilinadi. Nutq jarayonida ayol va erkaklarning gap qurilishida ham farqlarni sezish mumkin. Erkaklar nutqida darak va so‘roq gaplar ko‘proq qo‘llanilsa, ayollar nutqida esa ko‘proq so‘roq va undov gaplar ko‘proq uchraydi. Inversiya, to‘liq bo‘lmagan elliptik gaplar ko‘p kuzatiladi.

Og‘zaki nutqda kishilar turli turg‘unlashgan birliklardan ham foydalanadilar. O‘zbek tilida yillar davomida shakllangan, qo‘llanilib kelayotgan turg‘un iboralar duolar, qarg‘ishlar, tilak bildiruvchi yoki so‘kishni anglatuvchi turli birliklar erkak va ayollarda farq qilishi bilan birga nutq egalarining jinsiga ham ishora qiladi.

Badiiy asar tilining ta’sirchanligini ta’minlashda, uning o‘qishli bo‘lishiga erishilishida yozuvchining qahramonining lisoniy shaxs sifatidagi imkoniyatlarini to‘la aks ettira olishi ham muhim sanaladi. Umuman, badiiy asarda lisoniy shaxsni yosh va jins xususiyatlariga ko‘ra yoki boshqa omillarga ko‘ra gavdalantirish, ularga xos bo‘lgan xususiyatlarni ochib berishda yozuvchining tildan foydalanish mahorati, so‘z qo‘llash qobiliyati, o‘ziga xos uslubi, hayotni ziyrak kuzatuvchanligi qo‘l keladi. Bu esa badiiy asarlardagi xilma-xil lisoniy shaxslarning namoyon bo‘lishida yaqqol ko‘rinadi.

[1] Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция гендерной языковой личности: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Барнаул, 2004. – С.16.

[2] Фомин А.Г. Психолингвистическая концепция гендерной языковой личности: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Барнаул, 2004. – С.21.

**Resume:** Linguopersonology is the science of linguistic personality. Linguistic individuals differ from each other in profession, lifestyle, religion, social status, gender and age, and these aspects are directly manifested in the speech process. Linguistic personality is a multifaceted concept, and the factors that create it are also diverse. We divide the factors that determine linguistic personality into linguistic and extralinguistic factors. This article examines extralinguistic factors, including age and gender, in the formation of a linguistic personality.

**Резюме:** Лингвоперсонология – это наука о языковой личности. Языковой личности отличаются друг от друга по профессии, образу жизни, вероисповеданию, социальному статусу, полу и возрасту, и эти аспекты непосредственно проявляются в речевом процессе. Языковая личность – понятие многогранное, и факторы, ее создающие, также многообразны. Факторы, определяющие языковую личность, мы разделяем на лингвистические и экстралингвистические факторы. В данной статье рассматриваются экстралингвистические факторы, в том числе возрастные и половые, в формировании языковой личности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# JARGONLAR PRESUPPOZITSIYASI

**Rahimova Zebiniso Shomansur qizi,**
*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*

Hozirgi tilshunoslik yuzasidan antroposentrik paradigmaning tarkibida o'rganiluvchi pragmalingvistikaning muhim birliklaridan sanalgan presuppozitsiyani barcha til birliklari nuqtayi nazaridan o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida presuppozitsiyaning barcha turi atroflicha yoritilmagan bo'lib, ular o'rganilish bosqichida.

Tilshunoslikdagi presuppozitsiya hodisasi lingvistika va mantiqiy semantika orasidagi ko'prik hisoblanadi. Presuppozitsiya nutq vaziyati orqali ma'lum qilingan gapning to'g'ri tushunib yetilishi va anglanishi uchun eng zarur tarkibiy qismdir. Negaki, presuppozitsiya nutq so'zlanayotgan vaziyat, so'zlovchi va so'zlovchining maqsadi, shuningdek tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lmagan bilimlar kabi elementlarni o'z ichiga oluvchi hodisadir. Shuning uchun so'zlanayotgan gap tinglovchi tomonidan presuppozitsion jihatdan to'g'ri tahlil etilmasa, to'g'ri baholanmaydi va so'zlovchining maqsadi ro'yobga chiqmaydi. Presuppozitsiya so'zlovchining nutq jarayonidagi nutqiy tejamkorlikka intilishi, til birliklarining nutqda sintaktik strukturaga ikkilamchi ma'lumot berish imkoniyatiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Presuppozitsiya atamasi tilimizdagi tag ma'no, ya'ni yuzada berilmagan, lekin tinglovchi tushunishi, anglashi ko'zlangan maqsad va ifoda bilan uzviy bog'liq tushunchadir. Shuning uchun tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalangan yashirin holda aks etgan ma'no tushuniladi.

Presuppozitsiya hodisasini o'rganishda tilshunoslarning asosiy e'tiborini tortgan jihat presuppozitsiyani vujudga keltiruvchi nutq vositalari bo'ldi. Chunki, presuppozitsiya hodisasi til birliklarining lingvopragmatik tadqiqi doirasida gap mazmuniy tuzilishidagi o'ziga xosliklarni o'rganishda alohida o'rin egallaydi. Mavjud barcha tillarda lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi turli signallar bor. Tilshunos U.Rahimov presuppozitsiya hodisasining o'zbek tilida mavjud signallarini leksik vositalar, morfologik vositalar va sintaktik vositalarga bo'lib tasniflaydi[1].

Durdona Lutfullayeva o'zbek tilida mavjud tasdiq gapda inkor presuppozitsiya hodisasiga ishora qiluvchi leksik-grammatik vositalar sifatida ko'makchi, yuklama va ayrim bog'lovchilarni kiritadi, shuningdek, sintaktik vositalar sirasiga istakni ifodalovchi uch tur-

[1] Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Фил.фанлари номзоди дисс. – Андижон, 1994. – Б. 20.